



## Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Tarix fani 10-sinf

21.10.2024

### 1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Yettisuv viloyatiga tegishli bo‘lgan hududni toping?

- A) G‘azali    B) Chimkent  
C) Prjevalsk    D) Tajan

2. Lotin alifbosi yaratilgan davrni aniqlang.

- A) mil. avv. V-IV asrlar  
B) mil. avv. IV-III asrlar  
C) mil. avv. II-I asrlar  
D) milodiy I asr

3. Qaysi Eron hukmdori davrida harbiy qo‘sish qaytadan tuzilgan?

- A) Doro I    B) Kambiz II  
C) Kserks    D) Doro III

4. Quyidagi ma’lumotlar qaysi tarixiy davrga oid ekanligini aniqlang.

“Insoniyat o‘z rivojida yana bir pog‘onaga yuksaldi. Odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlar – urug‘ jamoalariga birlashdilar”.

- A) So‘nggi paleolit    B) Mezolit  
C) Neolit    D) Bronza

5. 1871-yildan 1875-yilgacha qaysi mamlakatda juda ko‘plab sanoat kompaniyalari va banklar paydo bo‘ldi?

- A) Angliya    B) Fransiya  
C) Germaniya    D) Italiya

6. Angliya tarixida qaysi hukmdor davri ajoyib davr deb atalgan?

- A) Eduard VII    B) Viktoriya  
C) Yelizaveta I    D) Vilgelm I

7. AQSH qaysi davlatning Panama kanalini qurayotgan va kasodga uchragan aksiyadorlik jamiyatining barcha aksiyalarini arzon-garovga sotib olgan?

- A) Angliya    B) Fransiya  
C) Germaniya    D) Kolumbiya

8. Turkiston harbiy okrugi qachon tuzilgan?

- A) 1867-yil    B) 1865-yil  
C) 1861-yil    D) 1885-yil

9. XIX asr o‘rtalarida Xivada rivojlangan hunarmandchilikning sohalarini ko‘rsating.

- A) me’morchilik, ganchkorlik  
B) zargarlik, kashtachilik  
C) do‘ppichilik, pichoqchilik  
D) atlas to‘qish, do‘ppichilik

10. XVIII asrning 60-yillarida Misrning iqtisodiy ahvoliga qanday omil yomon ta’sir qildi?

- A) fransuz qo‘sishlarining bostirib kirishi  
B) mamluk zodagonlarining o‘zaro urushlari  
C) turklarning harbiy yurishlari  
D) mahalliy shayxlarning o‘zaro nizolashishi

### 2-qism: Har bir topshiriq 1,7 balldan baholanadi

11. Rus hukumati tomonidan qachon “Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo‘riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Nizom” e’lon qilindi?

- A) 1860-yil    B) 1881-yil  
C) 1872-yil    D) 1893-yil

12. 1879-yilda mahalliy aholi Farg‘ona viloyatining qaysi uyezdida soliq yig‘ish noqonuniy tusga kirganligiga qarshi chiqib, soliqlarni kamaytirishni talab qilgan?

- A) Marg‘ilon    B) O‘zgan  
C) O‘ratepa    D) Namangan

13. Dastlabki paytlarda Turkistonda yangi usul maktablarining ko‘pchiligidagi qayerlardan nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanildi?

- A) Qozon va Orenburg    B) Qozon va Astraxan  
C) Krasnavodsk va Orenburg    D) Moskva va Saratov

14. Biror davlatda tub-joy aholining omon qolgan qismini zo‘rlab joylashtirish uchun ajratilgan hudud qanday nomlanadi?

- A) segregatsiya    B) rezervatsiya  
C) provinsiya    D) dislokatsiya

15. Qaysi davlatda XIX asrning 90-yillariga kelib sanoat to‘ntarishi yakunlandi va mamlakat ishlab chiqarishning umumiyligi hajmi bo‘yicha dunyoning beshta eng yirik industrial davlatlari qatoriga qo‘sildi?

- A) AQSH    B) Angliya  
C) Germaniya    D) Rossiya



Fan olimpiadalarini o’tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi



## Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Tarix fani 10-sinf

21.10.2024

16. Sibir istehkom chizig‘ini ko‘rsating?
- A) Raim qal’asidan-Perovskiy fortigacha
  - B) Semipalatinsdan-Verniy shahrigacha
  - C) Raim qal’asidan-Verniy shahrigacha
  - D) Semipalatinskdan-Perovskiy fortigacha
17. “Turkiston qayg‘usi” asari muallifini toping.
- A) Fitrat
  - B) Cho‘lpon
  - C) Mahmudxo‘ja Behbudiy
  - D) Alixonto‘ra Sog‘uniy
18. Prussiyaning Fransiyaga qarshi olib borgan urushi qaysi voqealardan keyin bosqinchilik urushiga aylanadi?
- A) Sedan qal’asining kapitulatsiyasi
  - B) Imperatorning taxtdan ag‘darilishi va Fransiyaning respublika deb e’lon qilinishi
  - C) German imperiyasining e’lon qilinishi
  - D) Fransiyaning Germaniya bilan tinchlik shartnomasini imzolanishi
19. Nuqtalar o‘rniga mos keladigan javobni toping.  
O‘rta asrlarda Xitoy:
- 1) Li Yuan – Tan sulolasi; 2) Chjun Yuan Chjan – Min sulolasi; 3) Xubilay - ...
  - A) Sin (Chin) sulolasi
  - B) Xan sulolasi
  - C) Yuan sulolasi
  - D) Sun sulolasi
20. Zardushtiylikda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashda, oxir-oqibat, ezgulik g‘alaba qozonadi. Biroq buning uchun kishilar nima qilishlari lozim edi?
- A) Chorvachilik bilan shug‘ullanishlari
  - B) Yer haydab dehqonchilik qilishlari
  - C) Insonlarga faqat yaxshilik qilishlari
  - D) G‘alla yetishtirishlari
- 3-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi**
21. Zulfiya Zokirova va uning frontdan qaytmagan besh o‘g‘li, sadoqatli kelinlari xotirasiga atab barpo etilgan haykalga nima deb nom berilgan?
- A) “Xotira maydoni”
  - B) “Matonat madhiyasi”
  - C) “Motamsaro ona”
  - D) “Sadoqat ramzi”
22. Yuan Shikay inqilobi harakatning tazyiqi bilan Sin sulolasi taxtdan voz kechishga majbur bo‘lgan yilda ...
- A) Eron 1907-yildagi Rossiya va Buyuk Britaniya ta’sir doiralari haqidagi bitimni tan olishga majbur bo‘ladi
  - B) Ko‘p yillik muhajirlikdan so‘ng Sun Yat Sen Xitoyga qaytib keldi
  - C) Turkiyada “Hurriyat va birdamlik” hukumati ag‘darildi
  - D) Fransiya G‘arbiy Sudanni bosib oldi
23. Tarixda Arzxona vazifasini bajargan inshootni aniqlang.
- A) Minorayi Kalon
  - B) Ko‘hna Ark
  - C) Sitorayi Mohi Xosa
  - D) Ulug‘bek madrasasi
24. XV asr o‘rtalarida yuz bergan qaysi omil Xitoyning ichki taraqqiyoti va tashqi siyosatiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi?
- A) Iqtisodiy inqirozning boshlanishi
  - B) Shimoldan manjurlar hujuming boshlanishi
  - C) Qishloq xo‘jaligi inqirozga yuz tutishi
  - D) Hokimiyat uchun sulolaviy nizolarning avj olib ketganligi
25. Quyidagilardan miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda qudratini cho‘qqisiga erishgan (a) va miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda zaiflasha boshlagan (b) davlatlarni belgilang.
- A) a-Midiya, b-Misr
  - B) a-Urartu, b-Chjou
  - C) a-Qadimgi Rim, b-Midiya
  - D) a-Qadimgi Bobil, b-Xett podsholigi
26. Ilk o‘rta asrlarda qo‘riq va bo‘z yerkarda suv chiqarilib, katta-katta ekin maydonlari barpo etildi. Bunday obodonchilik ishlarini amalga oshirishda kimlar ishboshi sifatida faol qatnashganlar?
- A) Kohinlar, mulkdor tabaqa vakillari, qabila boshliqlari, kadivarlar
  - B) Mulkdor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari, qabila boshliqlari
  - C) Kashavarzlar, dehqonlar, chokarlar, kadivarlar
  - D) Qishloq jamoalarining azolari, chokarlar, mulkdor tabaqa vakillari





## Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Tarix fani 10-sinf

21.10.2024

27. Qoraqalpoq adabiyotining atoqli namoyandasi Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li hayoti va ijodi haqida asar yozgan mualliflarni aniqlang.

1) K. Sultonov 2) A. Oripov 3) I. Yusupov 4) Y.

G‘ulomov

A) 2, 4      B) 2, 4

C) 1, 4      D) 1, 3

28. Qo‘qon xonligi tomonidan Ohangaron va Chirchiq vohasida bunyod etilgan istehkomlarni aniqlang. 1) Kerovchi; 2) O‘ratepa; 3) To‘ytepa; 4) Bo‘ka; 5) Ohangaron

A) 2, 3, 5

B) 2, 4, 5

C) 1, 2, 4

D) 1, 3, 4

29. 1886-yil imperator Aleksandr III tomonidan tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirilib, uning tarkibiga quyidagi qaysi hududlar kirgan?

1) O‘ratepa; 2) Samarqand; 3) Karmana; 4)

Kattaqo‘rg‘on

A) 2, 3

B) 1, 3

C) 1, 4

D) 2, 4

30. Qo‘qon hukmdori Norbo‘tabiy faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlang.

1) Chustni bo‘ysundirdi;

2) Qo‘qon shahrini obod qilib, uni xonlik poytaxtiga aylantirdi;

3) Namangan hokimi Irisqulibiy bilan sulh shartnomasini imzoladi;

4) o‘g‘li Olimbekni To‘raqo‘rg‘onga hokim etib tayinladi;

5) “Navkariya” deb atalgan muntazam qo‘shin tuzdi;

A) 1, 3, 4

B) 2, 3, 4

C) 2, 4, 5

D) 1, 2, 5



Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi

**10-sinf Tarix – 21.10.2024 KALITLAR:**

**1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi**

- 1. C
- 2. B
- 3. A
- 4. A
- 5. C
- 6. A
- 7. B
- 8. A
- 9. A
- 10. B

**2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi**

- 11. B
- 12. A
- 13. A
- 14. B
- 15. D
- 16. B
- 17. D
- 18. B
- 19. C
- 20. C

**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi**

- 21. B
- 22. A
- 23. B
- 24. A
- 25. B
- 26. B
- 27. D
- 28. D
- 29. D
- 30. A